INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

MADANIY MEROS OBYEKTLARINI BOSHQARISHDA ITALIYA VA ISPANIYA TAJRIBASIDAN FOYDALANISH: SAMARQAND VA FLORENSIYA MISOLIDA

Sayfiddinova Muxlisabonu Yunus qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 2-bosqich talabasi
ORCID: 0009-0007-6419-3859
sayfiddinovamuxlisa0@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada xalqaro turizm sharoitida madaniy meros obyektlarini boshqarishning huquqiy, moliyaviy va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot Italiya va Ispaniyaning madaniy merosni saqlash va undan barqaror foydalanish bo‘yicha ilg‘or tajribasiga asoslanib, ushbu yondashuvlarni O‘zbekiston sharoitida, xususan Samarqand shahri misolida joriy etish imkoniyatlarini baholaydi. Florensiya va Samarqand shaharlarining qiyosiy tahlili asosida madaniy meros va zamonaviy shahar infratuzilmasini uyg‘unlashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: madaniy meros, xalqaro turizm, madaniy merosni boshqarish, Art Bonus, 1.5% Cultural, tarixiy shaharlar, Samarqand, Florensiya.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОПЫТА ИТАЛИИ И ИСПАНИИ В УПРАВЛЕНИИ ОБЪЕКТАМИ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ: ПРИМЕР САМАРКАНДА И ФЛОРЕНЦИИ.

Сайфиддинова Мухлисабону Юнус кизи
Ташкентский международный университет Кимё
магистрант второго курса
sayfiddinovamuxlisa0@gmail.com

Аннотация: В данной научной статье представлен углубленный анализ правовых, финансовых и организационно-экономических механизмов управления объектами культурного наследия в контексте международного туризма. На основе передового опыта Италии и Испании в области сохранения и устойчивого использования культурного наследия, в исследовании оцениваются возможности реализации этих подходов в условиях Узбекистана, в частности, на примере города Самарканда. На основе сравнительного анализа городов Флоренции и Самарканда разработаны научно-практические рекомендации по интеграции культурного наследия и современной городской инфраструктуры.

Ключевые слова: культурное наследие, международный туризм, управление культурным наследием, Арт-бонус, 1,5% культурного наследия, исторические города, Самарканд, Флоренция.

USING THE EXPERIENCE OF ITALY AND SPAIN IN THE MANAGEMENT OF CULTURAL HERITAGE OBJECTS: THE EXAMPLE OF SAMARKAND AND

INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

FLORENCE

Sayfiddinova Mukhlisabonu Yunus qizi
Kimyo International University in Tashkent
second-year Master's Student
sayfiddinovamuxlisa0@gmail.com

Abstract: This scientific article provides an in-depth analysis of the legal, financial, and organizational-economic mechanisms for managing cultural heritage sites in the context of international tourism. Based on the advanced experience of Italy and Spain in the preservation and sustainable use of cultural heritage, the study assesses the possibilities of implementing these approaches in the conditions of Uzbekistan, in particular, on the example of the city of Samarkand. Based on a comparative analysis of the cities of Florence and Samarkand, scientific and practical recommendations have been developed for the integration of cultural heritage and modern urban infrastructure.

Keywords: cultural heritage, international tourism, cultural heritage management, Art Bonus, 1.5% Cultural, historical cities, Samarkand, Florence.

Kirish.

Bugungi globallashuv sharoitida madaniy meros obyektlari nafaqat tarixiy xotirani saqlovchi omil, balki xalqaro turizm orqali hududiy va milliy iqtisodiyotni rivojlantiruvchi strategik resurs sifatida qaralmoqda. Jahon turizm bozorida madaniy turizm ulushi tobora oshib borayotgani madaniy merosni boshqarish masalasini ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb qilib qo‘ymoqda(UNWTO, 2024).Tarixiy shaharlarda madaniy meros obyektlari va zamonaviy infratuzilma o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash murakkab boshqaruv mexanizmlarini talab etadi. Ayniqsa, turistik yuklamaning ortishi tarixiy obyektlarning jismoniy yemirilishi, ekologik muammolar va ijtimoiy qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shu boisdan ushbu maqolada Italiya va Ispaniyaning madaniy merosni boshqarish bo‘yicha ilg‘or tajribasi tahlil qilinib, ularning Samarqand shahrida qo‘llanish imkoniyatlari baholanadi. Tadqiqotning maqsadi tarixiy shaharlar misolida madaniy merosni barqaror boshqarishning samarali mexanizmlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Madaniy meros va turizm o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ko‘plab xorijiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Ashworth va Tunbridge (2017) tarixiy shaharlarni boshqarishda madaniy merosning iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini muvozanatlashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, tarixiy shaharlar “muzeylashib qolish” yoki haddan tashqari tijoratlashish xavfi ostida bo‘ladi. Richards (2018) madaniy turizmni hududiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholab, madaniy resurslardan oqilona foydalanish barqarorlikni ta’minlashini ilmiy jihatdan asoslaydi.OECD (2019) hisobotida esa madaniy merosni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi eng samarali model sifatida ko‘rsatilgan.

Italiya tajribasini o‘rgangan Settis (2019) madaniy merosni qat’iy huquqiy nazorat bilan birga iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Ispaniya bo‘yicha González-Varas (2020) madaniy merosni hududiy rivojlanish siyosatiga integratsiya qilishni ushbu davlatning asosiy ustunligi sifatida baholaydi. UNESCO (2020) va

UNWTO (2024) hisobotlarida tarixiy shaharlarda turizmni boshqarish, piyodalar zonalari va ekologik transportni joriy etish madaniy merosni saqlashning muhim sharti sifatida qayd etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi.Qiyosiy tahlil usuli - Italiya, Ispaniya va O‘zbekiston tajribalarini solishtirish uchun, institutsional tahlil - madaniy merosni boshqarishning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini baholashda, kontent-tahlil xalqaro tashkilotlar (UNESCO, UNWTO, OECD) hisobotlari va normativ hujjatlarni tahlil qilishda, mantiqiy tahlil va umumlashtirish - ilmiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishda ishlatildi.Empirik asos sifatida Florensiya va Samarqand shaharlarining madaniy meros obyektlari, turistik infratuzilmasi va boshqaruv amaliyoti o‘rganildi.

Tahlil va natijalar

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, madaniy va tarixiy merosni boshqarishning samaradorligi, avvalo, huquqiy-me’yoriy baza, moliyalashtirish mexanizmlari hamda tashkiliy-boshqaruv tizimining o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. Italiya va Ispaniya tajribasi mazkur uch omilning kompleks tarzda ishlashini yaqqol namoyon etadi.

Italiyada madaniy meros obyektlari davlat siyosatining strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Mamlakat hududida joylashgan minglab tarixiy obidalar, arxitektura majmualari va madaniy landshaftlar turizm orqali iqtisodiy aylanishga jalb qilingan. Biroq bu jarayon qat’iy huquqiy nazorat va ilmiy asoslangan restavratsiya talablari bilan birga olib boriladi. Italiya tajribasining muhim jihati shundaki, madaniy merosni saqlash faqat davlat byudjeti hisobidan emas, balki xususiy sektor va jamoatchilik ishtiroki orqali moliyalashtiriladi. “Art Bonus” mexanizmi orqali madaniy obyektlarga yo‘naltirilgan xayriya mablag‘lari soliq imtiyozlari bilan rag‘batlantiriladi. Natijada restavratsiya loyihalarining sezilarli qismi byudjetdan tashqari manbalar hisobidan amalga oshirilmoqda. Bu esa davlat moliyaviy yukini kamaytirish bilan birga, madaniy merosga nisbatan jamoatchilik mas’uliyatini oshiradi. Shuningdek, Italiyada tarixiy shaharlarda turistik oqimni boshqarish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Masalan, Florensiya shahrida tarixiy markazda avtomobil harakati keskin cheklangan, piyodalar zonalari kengaytirilgan va ekologik transport vositalari joriy etilgan. Ushbu chora-tadbirlar madaniy obyektlarga tushadigan antropogen bosimni kamaytirish bilan birga, sayyohlar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday yondashuv turistik tajriba sifatini oshirib, shahar iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Italiya Madaniyat Vazirligining 2023-2024-yillardagi statistikasi bo‘yicha davlat madaniy obyektlariga 2023-yilda 57,7 mln, 2024-yilda esa 60,8 mln tashrif qayd etilgan. Shu bilan birga, yalpi chipta tushumlari 313,9 mln yevrodan 382,0 mln yevrogacha oshgan. Bu holat madaniy turizmning nafaqat miqdoriy, balki iqtisodiy jihatdan ham o‘sib borayotganini ko‘rsatadi.Florensiyada eng yuqori tashrif ko‘rsatkichlari Uffizi galereyasi, Accademia galereyasi va Bargello milliy muzeyi hissasiga to‘g‘ri keladi. Xususan, 2024-yilda Uffizi galereyasiga 5,29 mln, Accademia galereyasiga 2,19 mln, Bargello muzeyiga esa 720 ming tashrif amalga oshirilgan. Ushbu obyektlarda chipta tushumlarining tashriflar soniga nisbatan tezroq o‘sishi bir tashrifga to‘g‘ri keladigan iqtisodiy samaradorlik oshganidan dalolat beradi.

Florensiyadagi turar joylar statistikasida esa 2024-yilda joylashtirish vositalarida 9,19 mln tunash qayd etilgan. Muzey tashriflari bilan joylashtirish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi tafovut shahar markazida bir kunlik tashrif buyuruvchilar ulushi yuqori ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi bergan ma’lumotlarga ko‘ra muzeylarimiz 2023-yilda jami 5,71 mln tashrifni qabul qilgan bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkichlar Samarqand hissasiga to‘g‘ri keladi. Registon ansambli va Samarqand davlat muzey-

qo‘riqxonasi har birida 1 mln nafardan ortiq tashrif qayd etilgan. 2024-yilda Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasiga tashriflar 1,03 mln taga yetgan bo‘lsa, Registon ansamblida bu ko‘rsatkich 908 mingni tashkil etgan. Ushbu raqamlar shaharning madaniy turizm markazi sifatidagi mavqeini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlarida, 2024-yilda Samarqand viloyatida mehmonxonalarda 428,4 ming kishi joylashtirilgan. Bu ko‘rsatkich madaniy obyektlarga bo‘lgan tashriflar sonidan bir necha baravar kam bo‘lib, shaharda bir kunlik sayohatchilar va ichki turizm ulushi yuqoriligini ko‘rsatadi.Olib borilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Florensiya va Samarqand shaharlarida madaniy obyektlar turizmi turizm rivojlanishining asosiy tayanch yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Florensiyada madaniy obyektlar yuqori iqtisodiy samaradorlik bilan ajralib tursa, Samarqandda madaniy obyektlarga bo‘lgan talab real joylashtirish ko‘rsatkichlaridan sezilarli darajada yuqori bo‘lib, bu shaharning mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi madaniy markaz sifatidagi rolini kuchaytiradi.

Ispaniyada madaniy merosni boshqarish hududiy rivojlanish siyosati bilan bevosita bog‘langan. Mamlakatda madaniy obyektlarni saqlash infratuzilma rivoji bilan parallel olib boriladi. “1.5% Cultural” dasturi doirasida yirik transport, yo‘l va shaharsozlik loyihalarining ma’lum qismi madaniy merosni tiklash va muhofaza qilishga yo‘naltiriladi. Bu mexanizm madaniy merosni iqtisodiy va hududiy rivojlanishdan ajratmasdan, yagona tizim sifatida boshqarish imkonini beradi. Yana bir muhim jihat - tarixiy shaharlarni modernizatsiya qilish jarayonida ularning madaniy identitetini saqlab qolishdir. Turistik markazlarda zamonaviy infratuzilma elementlari (axborot texnologiyalari, raqamli navigatsiya, “aqlli” transport tizimlari) tarixiy muhitga moslashtirilgan holda joriy etiladi. Bu esa tarixiy obyektlarning autentikligini buzmasdan, turistik xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda madaniy va tarixiy meros salohiyati nihoyatda yuqori. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar xalqaro miqyosda tan olingan tarixiy markazlar hisoblanadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, madaniy merosni boshqarish tizimida bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, madaniy meros obyektlarini moliyalashtirish asosan davlat byudjeti hisobiga amalga oshirilmoqda. Xususiy sektor ishtiroki va muqobil moliyalashtirish mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa restavratsiya va saqlash ishlarining ko‘lamini cheklab qo‘ymoqda. Ikkinchidan, tarixiy shaharlarda turizm infratuzilmasi bilan madaniy merosni muhofaza qilish o‘rtasidagi muvofiqlashtirish yetarli darajada ta’minlanmagan. Turistik oqimlarning ortishi ayrim hududlarda tarixiy obyektlarga ortiqcha yuklama tushishiga olib kelmoqda. Bu holat uzoq muddatli istiqbolda madaniy merosning jismoniy saqlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Uchinchidan, idoralararo hamkorlik mexanizmlari yetarli darajada institutsional darajada mustahkamlanmagan. Madaniyat, turizm, transport va shaharsozlik sohalari o‘rtasidagi boshqaruv qarorlari har doim ham yagona strategiya asosida qabul qilinmaydi.

Florensiya shahri Yevropa Uyg‘onish davrining shakllanishida yetakchi o‘rin egallagan tarixiy-madaniy markazlardan biri hisoblanadi. Ushbu shahar jahon miqyosida san’at, me’morchilik va shaharsozlik an’analari uyg‘unlashgan noyob tarixiy makon sifatida e’tirof etilgan. Florensiyaning tarixiy markazi YUNESKOning Jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, bu holat shaharning global madaniy ahamiyatini va uni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro majburiyatlarini belgilaydi.Florensiyada madaniy merosni boshqarish tizimi markazlashgan va institutsional jihatdan puxta shakllangan. Madaniyat, turizm, shaharsozlik va transport sohalari yagona strategik yondashuv asosida muvofiqlashtiriladi. Tarixiy hududlarda olib boriladigan har qanday qurilish yoki rekonstruksiya ishlari qat’iy huquqiy-me’yoriy talablar asosida amalga oshiriladi hamda majburiy ilmiy-ekspertiza jarayonidan o‘tkaziladi. Bu

esa tarixiy muhitning yaxlitligini saqlash bilan birga, shahar rivojlanishining barqarorligini ta'minlaydi. Madaniy meros obyektlarini moliyalashtirishda Florensiyada davlat byudjeti, xususiy sektor va jamoatchilik resurslarining uyg'un modeli qo'llaniladi. Xususan, Italiyada amal qiluvchi "Art Bonus" mexanizmi orqali xususiy investorlar va homiylar tarixiy obyektlarni saqlash jarayoniga faol jalb etiladi. Natijada madaniy meros obyektlari nafaqat saqlab qolinadi, balki ularning iqtisodiy samaradorligi va turistik jozibadorligi ham oshiriladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Italiya va Ispaniyaning madaniy merosni boshqarish bo'yicha ilg'or tajribasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish tarixiy shaharlarda barqaror turizmni rivojlantirish, milliy madaniy merosni asrab-avaylash hamda turizm sohasining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Florensiya va Samarqand misolida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, madaniy obyektlar turizmi har ikkala shaharda ham turistik rivojlanishning asosiy tayanch omillaridan biri hisoblanadi. Florensiyada madaniy obyektlar nafaqat tashriflar soni, balki iqtisodiy samaradorlik jihatidan ham yuqori natija ko'rsatmoqda. Samarqandda esa madaniy obyektlar tashrifi hududga kelayotgan umumiy turistlar oqimidan bir necha baravar yuqori bo'lib, bu shaharning xalqaro va milliy miqyosdagi madaniy markaz sifatidagi o'rnini tasdiqlaydi.

Samarqandda ham Florensiyada amalga oshirilgan ishlarni qilish orqali nafaqat sayyohlar sonini ortishiga, balki ijtimoiy jihatdan ham aholining madaniy meroslarga bo'lgan e'tiborini orttirish mumkin. Samarqandda joylashgan madaniy meroslarimiz O'zbekistonning butun tarixini o'zida aks ettirgan bo'lib uni kelajak avlodga va kelgusida keladigan chet ellik sayyohlar uchun asrab avaylash lozim.Yuqorida keltirib otilgan "Art Bonus"dasturi asosida O'zbekistoning barcha tarixiy yodgorliklari joylashgan shaharlarda amalga oshirsa,ya'ni aholidan olingan xayriyalar va xususiy sektor yordami asodida qayta ta'mirlash ishlariga moddiy yordam ko'rsatilsa, ularni asrashga yanayam ehtiyotkorona yondashgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashworth, G. & Tunbridge, J. (2017). The Tourist-Historic City. London: Routledge.
2. González-Varas, I. (2020). Cultural Heritage Law in Spain. Madrid: Thomson Reuters.
3. OECD (2019). Culture and Local Development. Paris: OECD Publishing.
4. Richards, G. (2018). Cultural tourism: A review of recent research. Journal of Hospitality and Tourism Management, 36, 12-21.
5. Settis, S. (2019). Italy's Cultural Heritage: Preservation and Challenges. Rome: Laterza.
6. UNESCO (2020). Managing Historic Cities. Paris: UNESCO Publishing.
7. UNWTO (2024). International Tourism Highlights. Madrid: UNWTO.
8. Ministero della Cultura (Italy). Musei e luoghi della cultura statali: statistiche 2023-2024.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Muzeylar faoliyati statistikasi, 2023-2024. www.stat.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. Turizm va joylashtirish vositalari bo'yicha rasmiy ma'lumotlar, 2024.